



XORIJY DAVLATLAR VA MAHALLIY QONUNCHILIGIMIZDA MANFAATLAR TO'QNASHUVI UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK MASALALARI

Bosimov Doston Olim o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta'lim
fakulteti Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayes
nazorati yo'nalishi 1- kurs magistri
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8022466>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-June 2023 yil
Ma'qullandi: 05-June 2023 yil
Nashr qilindi: 10-June 2023 yil

KEY WORDS

*korrupsiya, manfaatlar
to'qnashuvi, aktivlar
deklaratsiyasi, ehtimoliy
manfaatlar to'qnashuvi
to'g'risidagi deklaratsiya,
ma'muriy javobgarlik, jinoiy
javobgarlik..*

ABSTRACT

Ushbu maqolada davlat boshqaruvida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va unga qarshi kurashish uchun jinoiy javobgarlikka tortish bo'yicha bir qancha xorijiy davlatlarning qonunchiligi o'rganilgan, xorijiy davlatlarning tajribalar va ularning milliy qonunchiligimizda aks ettirish uchun sabablar, milliy qonunchiligimizda davlat boshqaruvida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish borasida olib borilayotgan islohotlari va joriy qonunchilikka ayrim taklif va tavsiyalar berilgan.

Hozirda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va ularga qarshi kurashish bo'yicha ko'plab istiqbolli ishlari olib borilmoqda. Xalqaro tajribadan o'tgan va hozirda o'z samarasini berayotgan, korrupsion holati eng past bo'lgan davlatlarning tajribalariga asoslanib, davlatchiligimizda ularni qonunchilikda qo'llash va amalda tatbiq etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va ularga qarshi kurashish bo'yicha Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, Fuqarolik Kodeksi, shuningdek "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunida belgilab qo'yilgan. Hozirda "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun loyihasining qabul qilinayotganligi sababli qonunchilikka ayrim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi ko'zda tutilgan. Jumladan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 175⁸-moddasi¹da davlat xaridlari jarayonidagi affillanganlik va manfaatlar to'qnashuvi haqida davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda xabar bermaslik, shuningdek davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilmagan xollarda, davlat xaridlari bo'yicha takliflarni qabul qilmaslik yoki takliflarni takdim etish muddatlarini davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga zid ravishda qisqartirish, shuningdek takliflar solingan konvertlarni ochish va xarid hujjatlariga muvofiq takliflarni baholash talablarini buzish bo'yicha javobgarlik belgilangan bo'lib, ya'ni mansabdor

¹ "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun loyihasi. "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun loyihasi Oliy Majlis Senati tomonidan ma'qullandi. 01.06.2023. [Манfaatлар тўқнашуви.pdf](#).

shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi, deya modda qayta to'ldirilmoqda.

MJtKning 193⁴-moddasida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi haqida davlat organining yoki boshqa tashkilotning mansabdor shaxsi yoki xodimi tomonidan xabar bermaslik, - bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etiladigan bo'lsa, - bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Davlat organining yoki boshqa tashkilotning mansabdor shaxsiga ma'lum bo'lib qolgan, manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish yuzasidan choralar ko'rmaslik, - bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilgan bo'lsa, - bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Ushbu moddaning birinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar davlat xaridlari sohasida sodir etilgan bo'lsa, - mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'lishi belgilanmoqda.

Shuningdek, MJtKning 245¹⁰-moddasida quyidagi o'zgarish ko'zda tutilmoqdaki, ushbu Kodeksning 193⁴-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar aniqlangan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining mansabdor shaxslari ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzadi. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma ushbu Kodeksning 282-moddasida belgilangan tartibda sudga ko'rib chiqish uchun yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 114-moddasi "Bitimlar haqiqiy emasligining oqibatlari to'g'risidagi umumiy qoidalari" qayta to'ldirilmoqda, ya'ni korrupsiyaga yo'l qo'yilgan holda tuzilgan bitim haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, bunday bitimni tuzish natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararining o'rni aybdor shaxslar tomonidan sud tartibida qoplanadi, moddaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Bundan tashqari, 116-moddada qonunchilikning talablariga muvofiq kelmaydigan mazmundagi bitim, shuningdek huquq-tartibot yoki axloq asoslariga atayin qarshi maqsadda tuzilgan bitim o'z-o'zidan haqiqiy emasdir. Bunday bitimga nisbatan ushbu Kodeks 114-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan qoidalar qo'llaniladi. Korrupsiyaga, shu jumladan manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda tuzilgan bitim sud tartibida haqiqiy emas deb topiladi, deya qayta to'ldirilmoqda.

Bizni qonunchiligimizda manfaatlar to'qnashuvi sodir etganlik uchun eng og'ir jazo ma'muriy javobgarlik qilib belgilangan bo'lib, jinoiy javobgarlik ko'rsatilib o'tilmagan. Lekin bir qancha xorijiy davlatlarda manfaatlar to'qnashuvini sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Dunyoning bir qator rivojlangan mamlakatlari, xususan Belgiya, Ispaniya, Latviya, Malta, Gollandiya, Portugaliya, Fransiya kabi davlatlar qonunlarida manfaatlar to'qnashuvi mustaqil jinoyat sifatida talqin etiladi².

² Bryn Williams-Jones. A Procedure for Managing Conflict of Interest When Forming Thesis Juries P.15

Fransiya. Fransiya Respublikasining Jinoyat Kodeksida manfaatlar to'qnashuvi bilan bo'lgan huquqbuzarliklar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Jumladan, 432-12-moddasi³ning mazmuniga etibor qaratadigan bo'lsak, tadbirkorlik yoki tadbirkorlik faoliyatida bir qancha miqdorda foyda olish, egallash yoki saqlash, ko'rib chiqilayotgan vaqtda davlat hokimiyatini egallagan yoki davlat xizmati vazifasidan ozod qilingan shaxs, yoki davlat saylov mandatini egallagan shaxs tomonidan bevosita yoki bilvosita nazorat qilish, boshqaruv, sotish yoki foydaning to'liq yoki bo'lagini egallashi 5 yillik qamoq yoki 75 000 yevro miqdorida jarima bilan jazolanadi. Lekin, hokimlar, ularning o'rinbosarlari yoki munitsipal maslahatchilar bo'yicha vazifasini bajaruvchi hokimning delegatsiyasi yoki uning o'rniga o'zi saylangan munitsipalitet bilan 3500 dan ortiq bo'lmagan munitsipalitetlarda shartnoma tuzishi mumkin.

Bundan tashqari ushbu moddada yuqorida nomi keltirilgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda shaxsiy turar joyini qurishi uchun munitsipal uy-joy qurilishidan uchastka olishi mumkin. Ularning shaxsiy turar joyi uchun munitsipalitet bilan turar-joy ijarasi shartnomasini tuzishlari kerak.

Fransiya Respublikasi Jinoyat Kodeksining 433-1-moddasida davlat hokimiyatini egallab turgan, davlat xizmatining muhim vazifasini bajaruvchi yoki davlat saylovida vakolat berilgan shaxsga qonunga xilof ravishda har qanday vaqtda bevosiya yoki bilvosita har qanday taklif, va'da, xayr-ehson, sovg'a yoki mukofotni taklif qilish natijasida o'z lavozimiga, burchiga yoki vazifasiga taalluqli harakatlarini bajarish yoki bajarmaslik yoki davlat organlari yoki hukumatdan muhim narsalar, ishlar, shartnomalar yoki boshqa maqbul qarorlarni erishishda o'zining haqiqiy yoki asosiz o'z tomoniga og'dirish bilan suiiste'mol qilishi 10 yillik qamoq va 150 000 yevro miqdorida jarima bilan jazolanishi keltirilib o'tilgan. 433-2-moddada davlat organi yoki boshqaruvidan muhim narsalar, ishlar, shartnomalar yoki boshqa maqbul qarorlarga erishish o'zining haqiqiy yoki asosiz bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatish bilan takliflar, va'dalar, xayr-ehson, sovg'alar yoki mukofotlar so'rash yoki qabul qilish bilan suiiste'moq qilganda 5 yillik qamoq va 75 000 yevro miqdorida jarima bilan jazolanadi⁴.

Fransiya qonunchiligida shaxslar o'zlashtirish va rastrata qilish uchun 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilinishi yoki maksimal €150,000 gacha jarimaga tortilishi mumkin. Manfaatlar to'qnashuvi uchun esa maksimal 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilinishi, €50,000 kamroqqa jarimaga tortilishi mumkin⁵.

Kanada. Kanadaning Jinoyat Kodeksining 123-moddasi⁶da korrupsiya va manfaatlar to'qnashuviga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilangan. Moddada ushbu modda bilan ayblangan har qanday shaxs 5 -yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilinadi. Buning uchun aybdor shaxs munitsipal mansabdor shaxsga yoki munitsipal mansabdor shaxs manfaati uchun har qanday shaxsga yoki munitsipal mansabdor shaxs bo'lsa bevosita yoki bilvosita har qanday shaxsdan o'zi yoki boshqa shaxs uchun qarz, mukofot, imtiyoz yoki imtiyoz talab qilishi, qabul qilishi, taklif qilishi yoki qabul qilishga rozi bo'lishi, shuningdek,

³ Ordinance no. 2000-916 of 19 September 2000 Article 3 Official Journal of 22 September 2000 in force 1 January 2002) https://www.equalrightstrust.org/ertdocumentbank/french_penal_code_33.pdf

⁴(Ordinance no. 2000-916 of 19 September 2000 Article 3 Official Journal of 22 September 2000 in force 1 January 2002) https://www.equalrightstrust.org/ertdocumentbank/french_penal_code_33.pdf

⁵ Overview of conflict of interest and related offences/

https://knowledgehub.transparency.org/assets/uploads/helpdesk/Overview_of_conflict_of_interest_and_related_offence_s_2017.pdf

⁶ Criminal Code (R.S.C., 1985, c. C-46) <https://laws-lois.justice.gc.ca/eng/acts/c-46/page-19.html#h-117813>

mansabdor shaxs uchun har qanday turdagi a) shahar kengashi yoki kengash qo'mitasi majlisida ovoz berishda betaraf bo'lish; b) chora, taklif yoki qarorni yoqlab yoki qarshi ovoz berish; c) chora, taklif yoki qarorni qabul qilishda yoki qabul qilinishiga yo'l qo'ymaslikda yordam berish; d) rasmiy harakatni amalga oshirish yoki qilmasligi o'zi kifoya qiladi.

Belgiya. Bu davlatning qonunchiligida ham manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqargan shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlik ham belgilangan. Belgiyaning Jinoyat Kodeksi⁷ 240-245-moddalarida manfaatlar to'qnashuviga nisbatan javobgarlik belgilangan. Moddalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, gipoteza va dispozitsiya qismlari aynan manfaatlar to'qnashuvi natijasida yuzaga keladigan huquqbuzarlikka qaratilmagan, balkim manfaatlar to'qnashuvi oqibatida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan jinoyatlar ko'rsatilgan, ya'ni manfaatlar to'qnashuvi bunday holatlarga sababchi xolos. 240-241-moddalarda belgilangan holatlarni sodir etgan shaxsga nisbatan bir xil javobgarlik 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish, 500 yevrodan 100.000 yevrogacha jarima belgilangan. 242-moddada 1 oydan 6 oygacha ozodlikdan mahrum qilish, 100 yevrodan 10.000 yevrogacha jarima belgilangan. 243-moddadagi holat uchun 6 oydan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish, 100 yevrodan 50.000 yevrogacha jarima, agar o'zlashtirish, zo'ravonlik yoki tahdid yordamida sodir etilgan bo'lsa 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish, 500 yevrodan 100.000 yevrogacha jarima bilan jazolanadi. 245-moddasida ham huquqbuzarligiga qarab tegishli jazo belgilangan.

Ispaniya. Ispaniyaning Jinoyat Kodeksi⁸da aynan manfaatlar to'qnashuvi sodir etilgan holatda bu uchun jinoiy javobgarlik berilgan moddalar keltirilmagan. Lekin Jinoyat Kodeksining V bobi korrupsiyaga bag'ishlangan bo'lib, 419-427-moddalarida manfaatlar to'qnashuvining bir qancha elementlari bilan sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun tegishli jazolar va jarimalar belgilangan. Hokimiyat yoki mansabdor shaxslarning qonunda taqiqlangan faoliyatlarni amalga oshirishi, jumladan qonun bilan cheklab qo'ygan sug'urta, soliqlar, subsidiyalar, belgilangan miqdordan ortiq sovg'alar, mukofotlar yoki boshqa imtiyozlar olishi, auksionlarda qatnashishi, manfaatdor kompaniyalar, shirkatlar yoki tashkilotlar bilan shartnomalar tuzishi qonunchilikda belgilangan javobgarlikka tortilishi belgilab qo'yilgan.

Latviya. Latviya Jinoyat Kodeksi⁹da manfaatlar to'qnashuvi sodir etganlik uchun aynan bir modda ko'rsatilgan, lekin manfaatlar to'qnashuvining ko'rinishlari, turlarini sodir etganlik uchun boshqa normalar bilan birgalikda jinoiy javobgarlik belgilangan.

Latviya Respublikasi Jinoyat protsessual Kodeksining 52-moddasi¹⁰ Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi shaxslar uchun manfaatlar to'qnashuvi shartlari belgilab qo'yilgan bo'lib, unda

1) Nikoh, umumiy xo'jalik yoki birinchi darajali qarindoshlik munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan shaxslar, agar ular alohida jinoiy ish bo'yicha quyidagilar bo'lsa:

1) nazorat qiluvchi prokuror yoki tergov ishini yuritayotgan shaxs;

⁷ Kuchga kirishi: 1867-10-15 Dossier numéro : 1867-06-08/01 https://legislationline.org/sites/default/files/documents/6e/BELG_CC_fr.pdf. <https://www.legal500.com/guides/chapter/belgium-bribery-corruption/?export-pdf>.

⁸ Uning so'nggi yangilanishi 2015-yil 28-aprel Organic Act 10/1995, dated 23rd November, on the Criminal Code. https://www.mjusticia.gob.es/es/AreaTematica/DocumentacionPublicaciones/Documents/Criminal_Code_2016.pdf.

⁹ Rīga, 8 July 1998. <https://www.warnathgroup.com/wp-content/uploads/2015/03/Latvia-Criminal-Code.pdf>.

¹⁰ Latvijas Vēstnesis, 74, 11.05.2005.; Latvijas Republikas Saeimas un Ministru Kabineta Ziņotājs, 11, 09.06.2005. Amendments not included: 06.10.2022. <https://likumi.lv/ta/en/en/id/107820-criminal-procedure-law>

2) yuqori turuvchi prokuror, ish yuritishni boshqarayotgan shaxs yoki nazorat qiluvchi prokuror;

3) tergov sudyasi, ish yuritishni boshqarayotgan shaxs, nazorat qiluvchi yoki yuqori turuvchi prokuror;

(2) Rad etish to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ega bo'lgan shaxs ushbu bo'limning birinchi xatboshida ko'rsatilgan manfaatlar to'qnashuvini tugatish to'g'risidagi masalani hal qiladi.

(3) Tergov sudyasi xuddi shu jinoyat protsessida ish yuritishni boshqarayotgan yoki nazorat qiluvchi prokuror bo'lgan shaxs bo'lishi mumkin emas.

(4) Sudya ishni ko'rishda ishtirok eta olmaydi, agar u:

1) sudgacha bo'lgan jinoyat ishini yuritishda yoki birinchi instantsiya yoki apellyatsiya sudida har qanday holatda ishtirok etgan;

2) uchinchi darajali qarindoshlik, ikkinchi darajali qarindoshlik yoki sud muhokamasida ishtirok etayotgan boshqa sudya, ayblovni yurituvchi yoki jinoyat ishini sud muhokamasiga topshirgan prokuror bilan nikohda bo'lsa yoki sudyaga, prokurorga yoki prokurorga topshirilgan umumiy uy xo'jaligi uning qarindoshi bo'lsa, deya belgilab qo'yilgan.

Gollandiya. Gollandiya Respublikasi Jinoyat Kodeksi¹¹da ham korrupsiya va manfaatlar to'qnashuviga oid alohida bob ko'rsatilmagan. Asosan davlat xizmatlarida sodir etiladigan jinoyatlar bilan birga moddalarda keltirilgan. Jinoyat Kodeksining 177- moddasida har qanday shaxsning davlat xizmatchisiga sovg'a, va'da berishi yoki unga xizmat ko'rsatish ko'rinishida yoki taklif qilsa, buning natijasida davlat xizmatchisi hozir yoki sobiq lavozim vazifasini buzgan holda muayyan harakatni bajarmasa 5 yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etilishi yoki beshinchi toifadagi jarima bilan jazolanishi, agar huquqbuzar o'z faoliyatida ushbu bobda ko'rsatilgan og'ir jinoyatlardan birini sodir etsa kasbga ega bo'lsa, u ushbu kasb bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilinishi mumkin, bundan tashqari 28(1°)(2°) va (4°) bo'limlarida sanab o'tilgan huquqlardan diskvalifikatsiya qilinishi mumkinligi keltirib o'tilgan.

Jinoyat Kodeksining 177a-moddada manfaatlar ko'rinishidagi huquqbuzarlik sodir etadigan bo'lsa ikki yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki beshinchi toifadagi jarima bilan jazolanishi ko'rsatilgan. 363-moddasida esa har qanday davlat xizmatchisining ijroda muayyan harakatlardan tiyilish uchun o'z xizmat vazifalarini buzgan holatda sovg'a, va'da qabul qilishi yoki unga xizmat ko'rsatish ko'rinishida yoki taklifni qabul qilsa va qonunchilikda belgilangan boshqa hollarda 4 yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki beshinchi toifadagi jarima bilan jazolanishi ko'rsatilib o'tilgan. Moddada yuqoridagi holatlardan tashqari boshqa huquqbuzarliklarni sodir etishga nisbatan qonuniy javobgarliklar ham keltirilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va unga qarshi kurashish borasida ko'plab davlatlar uzoq vaqt davomida kurash olib borgan bo'lib, ularning tajsibalariga tayangan holda milliy qonunchiligimizga ayrim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha taklif va tavsiyalar berish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yuqorida keltirilib o'tilgan davlat boshqaruvida manfaatlar to'qnashuvini sodir etilganda qonunchilikda belgilangan javobgarlik bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi va milliy

¹¹ Act of 3 March 1881 <https://antislaverylaw.ac.uk/wp-content/uploads/2019/08/Netherlands-Criminal-Code.pdf>

tajribalarni o'rgangan holatda o'zimizning xulosalarimizni quyidagicha ikki qismdan iborat qilib bayon qildik:

I. Davlat bosharuvida manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha tavsiyalar:

1.1. "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun loyihasi Oliy Majlisning ikkala palatasi tomonidan ham ma'qullandi, lekin haligacha qonuniy kuchga kirganicha yo'q. Shuning uchun qonuniy kuchga kirishini va uning ijrosini ta'minlashni tezlashtirish kerak.

1.2. "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun loyihasiga muvofiq ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida deklaratsiya bo'yicha qonun ishlab chiqish va uning ijroni ta'minlash bo'yicha yagona hech qaysi davlat organiga, hokimiyatiga bo'ysinmaydigan davlat hokimiyati organi yoki agentligi tashkil etishni tavsiya etamiz. Amaliyotga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha agentlik yoki bo'lim hodimlari o'z birlashtirilgan tashkilot rahbariga bo'ysinadi. Natijada korrupsion yoki manfaatlar to'qnashuviga oid muhim ma'lumotlarni uning roziligi bilan agentlikka yoki mas'ul tashkilotga yuborishdan oldin rahbarning tekshiruvidan o'tish kerak. Oqibatda muhim ma'lumotlar ushbu tashkilot yoki organ hududidan tashqariga chiqib ketmaydi. Bu ham qonunchiligimizdagi kamchiliklardan biri hisoblanadi. Shuning uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi xodimi o'zi birlashtirilgan tashkilotlarda mustaqil harakatini ta'minlash kerak.

1.3. Manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashishda asosan odob-axloq normalari muhim rol tutadi. Lekin bu normalar tashkilotlarda, organlarda va boshqa tuzilmalarda xodimlarga o'rgatiladi va ogohlantiriladi. Korrupsiya va Manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashda esa ma'naviyat masalasi eng ta'sirchan usullardan biridir, ammo uni singdirishda bir qancha kamchiliklar mavjud. Shuning sababli, ma'naviy olami boy inson qilib tarbiyalash korrupsiya va Manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega. Shu bois maktablarda, oliy ta'lim va undan keyin, ayniqsa, manfaatlar to'qnashuvining har qanday ko'rinishiga qarshi kurash tizimi uchun kadrlar zaxirasini shakllantirishda ma'naviyat darslarini keng yo'lga qo'yish ayni muddao.

II. Qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar:

2.1. Aytish kerakki, korrupsiyaga qarshi kurashishda uning turli ko'rinishlari avj olganligini inobatga olish, mazkur jarayonda samarali faoliyat yuritishda esa davlat xizmatchilarining daromadlari, mol-mulkini deklaratsiya qilish bilan bir qatorda xarajatlarni, shuningdek manfaatlar to'qnashuvini ham deklaratsiya qilish maqsadga muvofiq. "Davlat fuqarolik xizmatlari to'g'risida"gi Qonunning ishlab chiqilishi aktivlar deklaratsiyasiga oid qonunning ishlab chiqilishiga olib keladi. Bu borada "Davlat xizmatchilarining daromadlari, mol-mulki va manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilish to'g'risida"gi qonun loyihalarini ishlab chiqishni taklif etamiz.

2.2. Manfaatlar to'qnashuvini sodir etganlik uchun qonunchiligimizda eng og'ir jazo bu ma'muriy javobgarlik hisoblanadi. Xalqaro va xorijiy davlatlarning qonunchiligida ko'rinib turibdiki, manfaatlar to'qnashuviga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilangan. Manfaatlar to'qnashuvi pora olish, pora berish va boshqa bir qancha jinoyatning sodir bo'lishi uchun eshik vazifasini o'taydi. Shu joydan davlat boshqaruviga yoki boshqa qonun bilan belgilangan, himoya qilinadigan munosabatlarni buzadi. Bular va boshqa sabablarni hisobga olgan holatda manfaatlar to'qnashuviga nisbatan jinoiy javobgarlikni belgilash kerak. Jinoyat Kodeksiga 214¹-modda qo'shishni taklif etaman. Bu moddada manfaatlar to'qnashuvi sodir etilgan

holatda buning natijasida fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlariga jiddiy ziyon yetkazilganda tegishli tartibda jazo belgilash ko'rsatilgan bo'ladi.

2.3. Hozirda manfaatlar to'qnashuvining turli ko'rinishlari, turlari keng tarqalgan bo'lib, ularining eng keng tarqalganlarini qonunchilikda aks ettirish muhim sanaladi. Bu orqali ham manfaatlar to'qnashuvining yuzaga kelishini oldini olish mumkin. Qonunchilikda ularning ko'rinishlari, turlarining keltirilishi fuqarolarda bu bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lishga yordam beradi. Bundan tashqari qonunlarning o'zaro zid kelishi, tushunmovchiliklar yuzaga kelishining oldi olinadi. "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunga qo'shimcha

3¹-modda kiritilishini, unga "Manfaatlar to'qnashuvining turlari va ko'rinishlari" deb nom berishni va ularga alohida alohida tegishli ta'riflar berishni taklif qilamiz.

2.4. Jinoyat Kodeksining sakkizinchi bo'lim atamalarning huquqiy ma'nosiga manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi va turlarni qo'shishni taklif qilamiz. Hozirda manfaatlar to'qnashuvining turli xil ko'rinishlari va turlari mavjud bo'lib, ba'zilarining sodir bo'lishi natijasida fuqarolar, jamiyat va davlatning manfaatlariga jiddiy ziyon yetkazadi. Manfaatlar to'qnashuvining jinoiy javobgarlik darajasidagi ko'rinishlar va turlarini aniq qilib Jinoyat Kodeksiga kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun loyihasi. "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun loyihasi Oliy Majlis Senati tomonidan ma'qullandi. 01.06.2023. Манфаатлар тўқнашуви.pdf.
2. Bryn Williams-Jones. A Procedure for Managing Conflict of Interest When Forming Thesis Juries P.15.
3. Ordinance no. 2000-916 of 19 September 2000 Article 3 Official Journal of 22 September 2000 in force 1 January 2002) https://www.equalrightstrust.org/ertdocumentbank/french_penal_code_33.pdf.
4. Overview of conflict of interest and related offences/ https://knowledgehub.transparency.org/assets/uploads/helpdesk/Overview_of_conflict_of_interest_and_related_offences_2017.pdf.
5. Criminal Code (R.S.C., 1985, c. C-46) <https://laws-lois.justice.gc.ca/eng/acts/c-46/page-19.html#h-117813>.
6. Kuchga kirishi: 1867-10-15 Dossier numéro : 1867-06-08/01 https://legislationline.org/sites/default/files/documents/6e/BELG_CC_fr.pdf. <https://www.legal500.com/guides/chapter/belgium-bribery-corruption/?export-pdf>.
7. Uning so'nggi yangilanishi 2015-yil 28-aprel Organic Act 10/1995, dated 23rd November, on the Criminal Code. https://www.mjusticia.gob.es/es/AreaTematica/DocumentacionPublicaciones/Documents/Criminal_Code_2016.pdf.
8. Rīga, 8 July 1998. <https://www.warnathgroup.com/wp-content/uploads/2015/03/Latvia-Criminal-Code.pdf>.
9. Latvijas Vēstnesis, 74, 11.05.2005.; Latvijas Republikas Saeimas un Ministru Kabineta Ziņotājs, 11, 09.06.2005. Amendments not included: 06.10.2022. <https://likumi.lv/ta/en/en/id/107820-criminal-procedure-law>.
10. Act of 3 March 1881 <https://antislaverylaw.ac.uk/wp-content/uploads/2019/08/Netherlands-Criminal-Code.pdf>.